

**G'aniyeva Shoira**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada adabiyotning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot insonning ma'naviy kamolotini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Maqolada o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari ijodi asosida adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati, yoshlar ongiga ta'siri hamda milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning yoshlar tarbiyasidagi roli ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, axloq, badiiy asar, kitobxonlik, milliy qadriyatlar.

### **Annotation**

This article analyzes the role and importance of literature in the upbringing of young people. Fiction plays an important role in shaping the spiritual, moral, and intellectual development of the younger generation. The article highlights the educational significance of literature based on the works of representatives of Uzbek and world literature. It also examines the role of literary works in forming national values, moral qualities, and the worldview of young people.

This article analyzes the role and importance of literature in the upbringing of young people. Fiction plays an important role in shaping the spiritual, moral, and intellectual development of the younger generation. The article highlights the educational significance of literature based on the works of representatives of Uzbek and world literature. It also examines the role of literary works in forming national values, moral qualities, and the worldview of young people. In addition, the importance of developing reading culture among youth and its influence on their personal development is discussed.

**Keywords:** literature, youth education, spirituality, morality, fiction, reading culture, national values.

## **Аннотация**

В данной статье анализируется роль и значение литературы в воспитании молодёжи. Художественная литература является важным фактором формирования духовного, нравственного и интеллектуального развития молодого поколения. В статье рассматривается воспитательное значение литературы на основе произведений представителей узбекской и мировой литературы. Также анализируется роль художественных произведений в формировании национальных ценностей, нравственных качеств и мировоззрения молодёжи. Кроме того, освещается значение развития культуры чтения среди молодёжи и её влияние на формирование личности.

**Ключевые слова:** литература, воспитание молодёжи, духовность, нравственность, художественная литература, культура чтения, национальные ценности. developing reading culture among youth and its influence on their personal development is discussed.

**Keywords:** literature, youth education, spirituality, morality, fiction, reading culture, national values.

В данной статье анализируется роль и значение литературы в воспитании молодёжи. Художественная литература является важным фактором формирования духовного, нравственного и интеллектуального развития молодого поколения. В статье рассматривается воспитательное значение литературы на основе произведений представителей узбекской и мировой литературы. Также анализируется роль художественных произведений в формировании национальных ценностей, нравственных качеств и мировоззрения молодёжи. Кроме того, освещается значение развития культуры чтения среди молодёжи и её влияние на формирование личности.

**Ключевые слова:** литература, воспитание молодёжи, духовность, нравственность, художественная литература, культура чтения, национальные ценности.

## **Kirish**

Adabiyot inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi, his-tuyg'ularni tarbiyalovchi va dunyoqarashni kengaytiruvchi eng muhim san'at turidir. U so'z san'ati orqali insoniyat tajribasini, tarixni va his-tuyg'ularni avloddan-avlodga o'tkazadi, jamiyatda ma'naviy poklanish va estetik zavq bag'ishlaydi.

Adabiyot — fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha...

... Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdagi voqealar, hodisalar, fikr va tuyg'ularni umumiyashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishadi...

... Adabiyotimizning tasvir obyekti — xalqimiz turmushi. U o'z taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini, fikr-xayollarini yangi jamiyat qurish yo'lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlandi, benihoya yutuqlarni qo'lga kiritdi...Oybek

Fransuz faylasufi Gelvetsiy: «She'r yo yuksak cho'qqilarda, yoki g'orlarda yaratiladi», deydi. Darhaqiqat, she'r inson ruhining birmuncha g'ayritabiiy, ayricha holatidan tug'iladiki, zukko faylasuf buni obrazli qilib ifoda etgan. o'sha cheksiz ufqlar, sirli miltiragan sonsiz yulduzlar kimda ham his-tuyg'ular uyg'otmaydi, deysiz! Albatta, hammada ham. Faqat ijod dardiga chalingan odamda bu tuyg'u cheksiz armonga, go'zal iztirobga, qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Abdulla Oripov

Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngil tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik) har xil tusda va rangda bitishgan, fayzli til birga taqdir etula olmaydirg'on bir guldur. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida oning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradur...

... Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir...Cho'lpon

Bu kabi iqtiboslarni ko'plab keltirsam bo'ladi. Quyidagilarning barchasidan adabiyot nima degan savolga chuqur tafakkur ila javob topish mumkin. Qaysi davrda yaratilgan adabiyot namunasi bo'lmasin, barchasi inson ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, adabiyot so'zi chiroyli xulqlar yig'indisi demakdir. Adabiyot nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega. U orqali yoshlar o'tmishdagi voqealar, tarixiy shaxslar va madaniyatlar bilan tanishadi, o'zini anglash, jamiyatdagi o'rnini tushunishga erishadi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni o'zlashtiradi. Bugungi kun yoshlari texnologiyaga bo'lgan qiziqishlari sababli adabiyot darslarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan samarali, qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etish muhimdir. Ya'ni multimedia vositalari yordamida Klaster

metodidan,debatlardan foydalangan holda darsni tashkil etish orqali yoshlarni individual yetakchilik qobiliyatlari qobiliyatlari shakllanadi hamda jamoada qo'llash mumkin bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi.

Adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir.Umuman olganda adabiyot bu- tafakkur sarhadlarini kengaytirish imkoniyati. Badiiy adabiyot orqali kitobxon kechagi insoniyat tasavvur qilishi mumkin bo'lganidan ko'proq bilimga ega bo'ladi,dunyoni,hayotni mohiyatini anglaydi.Ya'ni har gal yangi teleskop paydo bo'lganida koinotning yangi-yangi qirralarini ko'rsa bo'lganidek,har bitta yangi asar o'qigan yosh avlod yangi tushuncha,bilinga ega bo'ladi.Badiiy asarlarning qaysi turini o'qimang o'zingizni,dunyoni anglab boraverasiz.Shuning uchun har bir yosh avlod uchun adabiyot bilim,tarbiya,o'zlikni anglash va tanishdir.

Adabiyotda asarlarning turi,mazmun ko'lami juda keng bo'lsa ham asosiy xususiyati hayotni badiiy obrazlarda aks ettirishdir.Har bir adabiyot obykti bo'lgan badiiy asar,avvalo,kechinma,hissiyot hamda munosabatning mahsulidir.Shuning uchun ham kitobxon asar qahramonlarining tuyg'u-kechinmalarini his etadi,qaysidir qahramonni yaxshi ko'rib qoladi va unga o'xshagisi keladi.Boshqa bir qahramondan esa nafratlanadi hamda unday bo'lmaslikka intifada.Shu orqali tafakkur qiladi,yoshlarning ma'naviyati hamda dunyoqarashi shakllana boradi.Adabiyotni mo'jizalarga to'la bir bog' deb tasavvur qilsak,undan nimalar olib chiqish har bir kitobxonning o'ziga bogliq.

Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti Hal qiluvchi ahamiyatga ega.Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi ya'ni har bir millatning in'ikosi adabiyotdir.Said Ahmadning "Ufq"trilogiyasida xalqimiz hayotining kichik,biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan.Chunki xalqimiz urush arafasida,Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik,qahramonliklar ko'rsatgan.Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og'ir mehnati,urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi.Asarda barcha baxtsizliklarning sababi urush hisoblanadi.Bu asar orqali yoshlarda vatanparlik ruhini tarbiyalash, insoniylik va mehnatsevarlik, matonat,mehr-oqibatni shakllantirish va hayot sinovlariga bardosh berishni o'rgatish shuningdek oila va jamiyat qadriyatlarini ulug'lash kabi sifatlarni shakllantirish mumkin.

O'tkir Hoshimov asarlarida esa inson tiynatidagi ezgulik,mardlik,bag'rikenglik tuyg'ularining talqini turli millat-u din sohiblarini buyuk maslak,niyat doirasida birlashtiradi.Andisha,lafz,uyat,ibo yanglig' fazilatlarining milliy xarakterda

uyg'unlashuvi tasavvurni boyitadi. "Bahor qaytmaydi" asarida oilaviy baxt borasidagi axloqiy qarashlar tizimida adolat, burch va jasorat tushunchalari muqoyasa etiladi. Bahor qaytmayd" qissasi inson umrining va shuhratining boqiy emasligi haqida. Asarda yozuvchi iste'dod ega, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum, xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini ijodkorona yoritib beradi. Bahor qaytmayd" qissasi inson umrining va shuhratining boqiy emasligi haqida. Asarda yozuvchi iste'dod ega, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum, xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini ijodkorona yoritib beradi.

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani ham urushga qarshi faryoddir. Asarda bosh qahramon Rustanning fojiviy qismati orqali afg'on urushining ma'nosiz mohiyatini teran va ta'sirchan ifoda etilgan. Butun umri davomida totalitar rejim siyosatining qalqoni va qilichi sifatida ish ko'rgan, necha minglab halol odamlar dilini jarohatlagan, yostig'ini quritgan Komissar ham o'ziga xos fojiviy obrazdir. Bu kimsaning fojiasi shundaki, u o'zi olib borgan qora ishlarni haq deb biladi. Shuningdek asarda Qurbonoy xola obrazi ham keltiriladi. U boshiga tushgan shuncha qiyinchiliklarni matonat bilan yenggan o'zbek ayoli timsolida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Adabiyot – inson hayotini, his-tuyg'ularini va jamiyatdagi voqeliklarni badiiy obrazlar orqali tasvirlab beruvchi so'z san'ati bo'lib, inson qalbini boyitishda, milliy ong va madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni adabiyot kishining xarakter xususiyatlarini shakllantirishda, uning tuyg'ular tizimini qaror toptirishda qator afzalliklarga ega. Turli davrda yaratilgan asarlarni o'qish jarayonida yoshlarimizda milliy iftixor, g'urur paydo bo'ladi, u yoki bu hodisaga o'z nuqtayi nazari bilan qaray boshlaydi, nimanidir yoqlab, nimanidir inkor etadi. Shu tariqa yoshlarimiz ming yillar davomida yaratilgan badiiy asarlar o'qib xalqimizning yuksak salohiyatidan, shonli tarixidan xulosalar oladi. Adabiy asarlar orqali yoshlar hayotni chuqurroq anglay boshlaydi, insoniy fazilatlarining qadrini tushunadi va jamiyatda qanday yashash kerakligini o'rganadi. Asarlarda tasvirlangan qahramonlarning hayoti, ularning kurashi, xatolari va yutuqlari o'quvchilar uchun katta ibrat bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali yoshlar yaxshilikka intilish, halol va vijdonli bo'lish, boshqalarga mehribonlik ko'rsatish kabi muhim fazilatlarini o'zida shakllantiradi. Shunday ekan badiiy adabiyotimiz yoshlarni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2009.

2.Mirvaliyev S.O'zbek adiblari.-T.:Yozuvchi,2000.

3.Qodirov Z.Zamonaviy adabiyot darslari.T.:2019.

4.Karimov H.Adabiyot va tarbiya.T.:Ma'naviyat nashriyoti.2020.